

MOMORDIKANING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Alisher Botirov

Toshkent davlat agrar universiteti Samnarqand filiali, q.x.f.f.d. (PhD)

Hayotxon Otajonova

Toshkent davlat agrar universiteti Smarqand filiali, talaba

ANNOTATSIYA

Maqolada momordika yetishtirish va uning dorivorlik xususiyatlarini o'rganish orqali undan xalq xo'jaligida foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Momordika, gul, meva, urug', damlama, ekstrakt, liana

ABSTRACT

In the article, the ways of using it in the national economy are explained by studying the cultivation of Momordica and its medicinal properties.

Keywords: Momordica, flower, fruit, seed, tincture, powder

KIRISH

Momordika kelib chiqish vatani Hindiston va Xitoy bo'lib, hozirgi kunda manzarali va shifobaxsh o'simlik sifatida Janubiy Osiyoning barcha mamlakatlarida yetishtirilmoqda. Bu o'simlik o'zining dorivorlik xususiyatlari, antiqa nomlari va ajoyib tashqi ko'rinishi bilan insonlarni o'ziga jalb qiladi. Momordikaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali dorivor o'simliklar salmog'ini yanada oshirishga o'z hissamizni qo'shamiz.

ADABIYOLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Momordika - bir yillik, ko'p yillik va liana kabi hayotiy shakllarga ega o'simlik bo'lib, qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilasiga mansub. Momordikaning uzun poyalari 2-5 metrga yetadi, barglari katta o'yilgan, och yashil rangga ega. Momordikaning xushbo'y hidga ega va yorqin sariq rangli gullari insonga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Momordikaning timsoh terisiga o'xshash ajoyib ko'rinishdagi mevalari uzunligi 10-25 smgacha, diametri 6 smgacha yetadi. O'sish va pishib yetish jarayonida ular ranglarini yashildan to'q sariq rangga o'zgartiradi. Mevalari 30 tagacha urug'lardan va yoqut rangli qobig'dan iborat. Momordikaning 60 ga yaqin turi mavjud bo'lib, ulardan iqtisodiy

jihatdan eng ahamiyatli 2 ta turi - *Momordica Charantia* va *Momordica Cochinchin* ko'p yetishtiriladi va foydalaniladi. *Momordika-* telba bodring, hind bodringi, achchiq qovun, hind anori, balsamik nok, timsoh bodring kabi antiqa nomlarga egaligi bilan boshqa o'simliklardan farq qiladi. *Momordika* nomining o'zi ham lotincha "momordicus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "tishlash" degan ma'noni anglatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Momordika foydali mevalari uchun va dekorativ o'simlik sifatida ochiq yerlarda, issiqxonalarda xona sharoitida tuvaklarda, ko'p qavatlari uylarda balkonlarda va bog'larda yetishtiriladi. *Momordikadan* ochiq yerlarga ekishda urug'idan va issiqxonalarda yetishtirilgan ko'chatlaridan foydalanamiz. Bu o'simlik termofil bo'lganligi uchun ko'chatlaridan yetishtirish samarali hisoblanadi. Urug'larini yirik, to'liq, yetuk bo'lganlari saralanib olinadi. Urug'larni ekishdan oldin namlik muhitida ko'p saqlamaslik kerak, aks holda bu holat urug'larni chirib qolishiga va unuvchanlikni pasayishiga olib keladi. Boshqa mevali o'simliklarda bo'lgani kabi [2, 3, 4] urug'lar unib chiqishi uchun harorat kamida +22, +25C bo'lishi kerak. *Momordika* organik birikmalar bilan yetarlicha ta'minlangan tuproqlarda yaxshi o'sadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz kerakki, Turdaliyev. A. T ,

Isagaliyev M, Eshpo'latov Sh. Y, Haydarov M.M , Asqarov K. A kabi olimlar tuproqlarning xossa xususiyatlarini o'rgangan. *Momordika* vegetatsiya davri davomida agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida bajariladi, 3 marta o'g'itlanadi va tez-tez sug'orib turiladi. *Momordikaning* dastlabki hosili avgust oylarida pishishni boshlaydi va bu o'simlikdan bir necha marta hosil olishimiz mumkin.

Momordika - mamlakatimiz uchun yangi o'simlik turi hisoblanib, bu o'simlik haqida olib borilgan tadqiqotlar kam. Hozirgi kungacha respublikamiz bo'yicha Farg'ona davlat universiteti Zootexniya va agronomiya kafedrasi o'qituvchisi A.A.Saminov, FarDu talabalari D.E.Ismoiljonova va I.T.Kamoliddinovalar "Dorivor momordika yetishtirish va o'simlikning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida ilmiy ish olib borishgan [1].

Dorivor momordikaning foydali xususiyatlari

Momordika-immunitetni ko'taradigan va ko'rishni yaxshilaydigan, tanadan toksinlarni chiqarib tashlaydigan meva. Urug'i qobig'ida karotinga boy yog' mavjud. Inson tanasida bu modda A vitaminiga aylanadi. Urug'lari yallig'lanishga qarshi, isitma tushiruvchi, antiseptik va shishni yengillashtiruvchi vosita sifatida foydalaniladi.

Momordika ildizlarida revmatizmni davolashda ishlataliladigan moddalar triterpen saponinlar mavjud.

O'simlikning dorivorlik xususiyatlari tarkibi vitaminlarga boyligi bilan bog'liq. Momordika mevasi tarkibida A, B, F, E, C va PP vitaminlari, shuningdek, alkaloidlar, organik kislotalar, aminokislotalar mavjud. O'simlik tarkibidagi B guruhidagi vitaminlar soch, teri, to'qimalarining holatini yaxshilaydi. A vitamini ko'rish o'tkirligini kuchaytiradi. Noyob biologik faol moddalar hisoblangan E vitamini erta qarishni oldini oladi va antioksidant ta'sirga ega, F vitamini esa butun tanani kuchga to'ldiradi. Eng keng tarqalgan komponent C vitamini - bu o'simlikda ham mavjud. Shuning uchun ham immunitetni ko'tarishda momordika foydali hisoblanadi.

Momordika mevalari fitonsidlarning ajoyib manbayi bo'lib, ular infeksiyalarni o'ldiradi va yallig'lanishni yengillashtiradi.

O'simlik qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlar uchun juda foydali. Uning mevalarida qondagi qand miqdorini pasaytiradigan harontin muddasi mavjud bo'lib, ushbu komponent tanada insulin ishlab chiqarilishini normallashtiradi va oshqozon osti hujayralari sonini oshiradi.

Momordika ekstrakti sarkoma, melanoma, leykemiya kasalligiga chalingan bemorlarni davolashda yaxshi samara beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mevalaridagi mavjud antiviral va antibakterial faollik tufayli gepatit va OIV ni davolashda ishlatilishi mumkin. Amerikalik olimlar momordika sharbatidagi moddalar nafaqat saraton hujayralarini o'sishini to'xtatibgina qolmay, balki ularni yo'q qilishini ham aniqladilar.

Xalq xo'jaligidagi foydalilaniladigan shifo beruvchi damlamalar

Momordika urug'idan damlama

Taxminan 15-20 ta maydalangan momordika urug'i va 1 stakan qaynoq suv 10 daqiqa davomida past olovda qaynatiladi. Keyin 1 soat tindiriladi va filtrlanadi. Momordika urug'ining damlamasi 50 mg dan kuniga 3-4 marta isitma kasalliklarida va siyidik haydovchi vosita sifatida ichiladi.

Momordika meva damlamasi

Urug'siz momordika mevalari mayda bo'laklarga kesib olinadi. Ularni 3 litrli idishga zinch qilib to'ldiriladi va unga yarim litr spirt quyiladi, qopqog'ini yopib, 2 hafta davomida qorong'u salqin joyda saqlanadi. Momordika mevalarining damlamasi 3 kun davomida och qoringa (ovqatlanishdan 30 daqiqa oldin), kuniga 3 marta 1 choy qoshiqda ichiladi. Momordika meva damlamasi shamollash (yo'tal, burun oqishi, isitma, psoriaz va revmatizm uchun samarali. Shuningdek, u tananing immunitetini mustahkamlash uchun vosita sifatida ishlatiladi.

Xalq tabobatida va zamonaviy tibbiyotda momordikaning barcha qismlaridan - ildizidan, barglaridan, meva va urug'laridan foydalilanadi. Ildizlari, barglari va urug'laridan qaynatma va

damlamalar tayyorlab iste'mol qilinadi. O'simlik mevalari esa xom va pishgan holatida qovurilgan, qaynatilgan, tuzlangan va konservalangan holda iste'mol qilinadi. Momordika o'simligi Osiyo xalqlarida an'anaviy oshxonada ishlatiladi. Sho'rvalar, salatlar va turli xil ovqatlar tayyorlashda yosh barglari va barra mevalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari mevalaridan ekstrakt olinadi, urug'laridan esa qandolatchilikda foydalanish mumkin. Momordikaning xalq xo'jaligidagi yana bir ahamiyatli tarafi shundaki, terining qarishini sekinlashtirish xususiyati mavjudligi tufayli parfyumeriya mahsulotlari tayyorlashda va kosmetikada foydalaniladi [6, 7, 8].

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, momordikaning barcha qismlari foydali xususiyatlarga ega, shu sababdan momordika yetishtirishni xalqimiz orasida ommalashtirishimiz va ko'paytirishimiz kerak. Momordika nafaqat dorivorlik xususiyatlari tufayli balki manzarali dekorativ o'simlik sifatida va estetik zavq olish maqsadida ham ekib o'stiriladi.

REFERENCES

1. A.A.Saminov, D.E.Ismoiljonova, I.T.Kamoliddinova "Dorivor momordika yetishtirish va o'simlikning o'ziga xos xususiyatlari" ilmiy maqola. Science and innovation - international scientific journal.
2. Botirov, A., & Arakawa, O. (2021). Root growth changes in the winter planting of young 'Miyabi Fuji'apple trees. International Journal of Horticultural Science and Technology, 8(3), 227-233.
3. Botirov, A., & Arakawa, O. (2022). The interaction of rootstocks, water and soil humectants and young apple tree growth. Academic research in educational sciences, 3(Speical Issue 1), 43-56.
4. Botirov, A. E., & Aliyev, O. B. O. G. L. (2022). NOK (PYRUS) MEVALI EKINI–TADQIQOTLAR VA NATIJALAR. Academic research in educational sciences, (Conference), 199-202.
5. <https://uz.healthy-food-near-me.com/momordica-is-an-explosive-source-of-vitamins/>.